

## TURIZM RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA TUROPERATORLAR FAOLIYATI

*Teshayeva Dilyayra Muzaffar qizi*

*O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti siyosati  
va turizmi kafedrasida turizm fakulteti Malayziya-ingliz guruhi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmni rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan sabablar, shuningdek turizmga oid konferensiyalar tahlili va konferensiyalarning turizm rivojlanishi qo‘shgan hissasi va turoperatorlar tizimi va ularning turizmdagi roli .O‘zbekistonda turizmga bo‘lgan munosabat va turizmga oid qarorlar va farmonlar Shuningdek O‘zbekiston hududida o‘tkazilgan konferensiyalar yutuqlari haqida bevosita yoritib o‘tilgan .

**Abstract:** This article examines the reasons hindering the development of tourism, as well as an analysis of conferences related to tourism and the contribution of conferences to the development of tourism, the system of tour operators and their role in tourism, attitudes towards tourism in Uzbekistan and decisions and regulations related to tourism, as well as also the achievements of conferences held on the territory of Uzbekistan.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены причины, препятствующие развитию туризма, а также анализ конференций, связанных с туризмом и вклад конференций в развитие туризма, система туроператоров и их роль в туризме, отношение к туризму в Непосредственно освещены Узбекистан и решения и постановления, связанные с туризмом, а также достижения конференций, проводимых на территории Узбекистана.

**К**

**а**

**l KIRISH:** Bugungi kunda globalashuv jarayonida turizmga alohida e’tibor

**q**

**h**

**so‘zlār:** turizm, turoperator, konferensiya, terrorizm, MDH.

**а TURIZM** – jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatdagi manbalardan

**h**

**h**

**h**

**m** Ochko‘zlik hayotiga yakun yasagan sayohatchi nomi bilan tanilgan Xristafor Kolumb (1451 – 1506 yy) haqiqiy dengizda suzuvchi bo‘lgan. Geografiyani o‘rgangan.

**h** Hindistonga Atlantika okeani orqali borish g‘oyasini ilgari surgan. Sababi o‘sha

**h**

**h**

davrlarda Turkiya Sharq va G'arbni ajratib turgan va bunga qarshilik qilgan. Ispaniya podshosining moliyaviy ta'minoti orqali 1492 yilda ochiq dengizga chiqib, San – Salvador (Gaunaxani), Xuan oroli (hozirgi Kuba), va Espanol (Gaiti) davlatlarini kashf etib katta geografikkashfiyotlarga erishadi. Asosiy masqsadi kashfiyot emas balki, boyluk bo'lgan sayohatchini tinch qo'ymaydi natijada Yevropa uchun Katta Antil orollar arxipelagini, Orinoko daryo quyilishini, Markaziy Amerikani ochib beradi. Vasko da Gama (1490 - 1542) otasining sayohatini davom ettirib, dunyoda birinchi bo'lib, okean orqali Portugaliyadan Sharqqa yo'l ochadi. Bir necha marta muvaffaqiyatli ekspeditsiyalari natijasida Hindistonga yetib boradi. Fernando Magillan (1480 – 1521 yy) o'z sayohatini birinchi marta admiral Fransisko Almeda floti bilan boshlagan Fernando bir necha ekspeditsiyalari ortidan Indoneziyadagi Malay arxipelagi, Janubiy Amerika, keyinchalik o'z nomiga qo'yilgan Magillan bo'g'ozi, Molukki, Filippin orollarini tadbiq etadi Jeyms Kuk (1728 – 1779 yy.) Angliya moliyaviy ta'minoti asosida Avstraliya sharqiy qirg'oqlari, Yangi Zelandiya va Yangi Gvineya orollarini kashf etib geografiya katta hissa qo'shadi. Kuk harita tuzish bilanshug'ullanib borishi natijasida haritaga Yangi Kaledoniya, Janubiy Jordiya, Pasxa, Markiz, Hamdo'stlik orollarini kiritadi. U janubiy yarim sharni kesib o'tadi. Shu bilan birgalikda Gavay, Rojdestvo va bir qancha orollarni tadbiq etadi. Mikluxo Maklay (1846 – 1888 yy) Kanar orollari, so'ngra Madeyra, Marokash, Qizil dengiz qirg'oqlariga sayohat qiladi. Asosan faunalarni tadqiq etadi va etnograf bo'lib yetishadi. Uni ko'proq gullar qiziqtirgan. Maklay Janubi – Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Gvineya orollari tub aholisini tadqiq qilgan. Dqiq qilgan. Turizm asoslari fanida, tavsiflash metodidan ham keng foydalaniladi. Mazkur usul nisbatan sodda va keng qo'llanilib, o'tgan voqea – hodisalarni xronologik tartibda ma'lumotlarni tizimlashtirish va yig'ishdan iborat. Turizm tadqiqotlar metodi:

1. Tavsifiy metod - nisbatan sodda va tez – tez qo'laniladigan metod bo'lib, o'tgan voqea – hodisalar haqidagi ma'lumotlarni xronologik tartibda yig'ish va tizimlashtirishga xizmat qiladi.

2. Kartografiya metodi (joyni xaritaga olish, ma'lum joy xaritasini tuzish) - sayohat marshrutlarini aniqlash, tabiiy sharoitlar, landshaftlar, aholi tarkiblari bo'yicha hududlarni belgilash va ularni tasniflash.

3. Taqqoslama – tarixiy metod. Turli xalqlar madaniyatidagi o'xshash jihatlari va farqli tomonlarini yig'ish va aniqlash. Mazur usul kartografiya metodi bilan birgalikda ishlatiladi

4. Tarixiy – mantiqiy metod. Tarixiy jarayonlarni mantiqiy ketma – ketlikda tuzishga imkon beruvchi usullar jamlanmasidir.

Bozorni o'rganish va tahlil qilish: Turoperatorlar turistlarning tendentsiyalari, afzalliklari va ehtiyojlarini aniqlash uchun bozor tadqiqotlarini o'tkazadilar. Bu ularga jozibali sayohat paketlarini ishlab chiqishda va yangi yo'nalishlarni ishlab chiqishda

yordam beradi. Mahsulotni ishlab chiqish: Turoperatorlar turistlarning xilma-xil ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan yangi va noyob turpakatlarni yaratish ustida ish olib boradilar. Bu mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish va moslashtirilgan tajribalarni yaratishni o'z ichiga olishi mumkin. Destinatsiyani reklama qilish: Turoperatorlar veb-saytlar, broshyuralar, ijtimoiy media va sayyohlik agentliklari kabi turli marketing kanallari orqali potentsial turistlar uchun yo'nalishlar va diqqatga sazovor joylarni targ'ib qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hamkorlikni boshqarish: Turoperatorlar turpakatlarning muammosiz bajarilishini ta'minlash uchun mehmonxonalar, aviakompaniyalar, transport provayderlari va mahalliy ekskursiya gidlari kabi mahalliy yetkazib beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qiladilar. Risklarni boshqarish: Turoperatorlar tur davomida risklarni minimallashtirish va mijozlarning xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'radi. Bu sayohat sug'urtasini taqdim etish, sog'liq va xavfsizlik standartlarini ta'minlash va favqulodda vaziyatlar rejalariga ega bo'lishni o'z ichiga olishi mumkin. Barqaror turizmni rivojlantirish: Turoperatorlar ekologik toza amaliyotlarni targ'ib qilish, mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash va madaniy merosni saqlash orqali barqaror turizmga e'tiborini tobora ortib bormoqda. Mijozlarga xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash: Turoperatorlar tur oldidan, davomida va undan keyin sayyohlarga uzluksiz va yoqimli tajribani ta'minlash uchun doimiy yordam va yordam ko'rsatadi. Normativ muvofiqlik: Turoperatorlar turizm sohasida axloqiy va qonuniy faoliyat yuritishlari uchun mahalliy va xalqaro qoidalar va standartlarga rioya qilishlari kerak. Innovatsiyalar va moslashuv: Turoperatorlar sanoatda raqobatbardosh bo'lib qolish uchun doimiy ravishda innovatsiyalar kiritishlari va o'zgaruvchan bozor tendentsiyalari, texnologik taraqqiyot va mijozlarning xohishlariga moslashishlari kerak. Turizm manfaatdor tomonlari bilan hamkorlik: Turoperatorlar davlat organlari, sanoat assotsiatsiyalari va mahalliy hamjamiyatlar bilan turizmni barqaror rivojlantirishga yordam beruvchi tashabbuslar ustida hamkorlik qilish va turizm sanoati oldida turgan muammolarni hal qilish uchun ishlaydi. Tarix fanining otasi – Gerodot (eramizdan avvalgi V asr) Yevropa, Osiyo va Misr bo'ylab sayohat qilgan. Uning «Tarix» nomli asarida Markaziy Osiyoning qadimiy xaiqlari – ko'chmanchi qabilalari: agrippiyalar, issedonlar, massagetlar, daylar, saklar hayoti, odat va marosimlari, qo'shni mamlakatlar (masalan, Eron) bilan aloqalari bayon etiladi. Gerodot massagetlarni hunarmand ekanliklari: mis va oltindan yasalgan qurol-aslahalar, ot anjomlari, turli idishlar, zeb-ziynatlar, bosh kiyimlar, belbog', zardo'zlik ustalaribolganliklarini yozib qoldirgan. Yoki, fransuz tadqiqotchisi va geografi Pifey (eramizdan avvalgi 320-yil) esa oksha vaqtlarda aql bovar qilmaydigan tarzda butun Yevropa bo'ylab sayohat qilgan. U Britaniya orollarini aylanib o'tib, Norvegiya va Islandiyagacha borgan. Uning «O'kean haqida» deb nomlangan ajoyib asarida ko'plab geografik ixtirolar tasvirlab berilgan. Keling, ularning ayrimlari haqida (garchi

yurtimizga tashrif buyurgan va tashrif buyurmagan bo‘Isalarda) fikr bildiraylik. Aslida esa ular juda ko‘p va xilma-xildir. Marhum tarixchi olim , akadem ik Bo‘riboy Ahmedovning« O‘zbekiston tarixi manbalari» kitobida biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan ushbu masalaga alohida e‘tibor bilan qaralgan. Asarning ilk www.ziyouz.com kutubxonasi sayohatchilar tarixini o‘rganishdagi ahamiyati cheksizdir. Ayniqsa, u va gid - ekskursovodlar uchun yanada qimmatli hisoblanadi. Shusababli, uni va boshqa tarixiy asarlarni mutolaa qilib, sayohat va ilksayohatchilik tarixi nuqtayi nazaridan okrganib, o‘ta muhim tarixiy ma‘lumotlar olishga muvaffaq bo‘ldik. unki, ular yashagan davr yaqin o‘tmishimizdir. O‘tmish tariximiz haqida xabar beruvchi manbalariga e‘tiborim izni qaratsak, qadimgi davrlardagi diniy e‘tibordagi ziyoratchilarni ham ilk savohatchilarqatoriga Qo‘shishimiz mumkin. Barcha din vakillarining muqaddas deb bilgan o‘z qadam jolari – ziyoratgohlari mavjud. O‘tmish davrlarini tasavvur qilsak, kishilar nim alargadire‘tiqod qilishgan, siglnishgan. Kerak bo‘lsa, shu yolda qurbonlik ham amalga oshirishgan. E‘tiqod qilish yoki sig‘inish maqsadida bir hududdan ikkinchi bir hududga borishgan va diniy amallarini bajarishgan. Odamlarning e‘tiqod qiluvchi kitoblari Alloh tomonidan bandalariga yuborib turilgan. Ushbu kitoblarga muvofiq e‘tiqod qilingan. Masalan, musulmonlar haj ziyorati tufayli farz amallaridan birini ado etishgan, ta‘bir joiz bo‘lsa, sayohat qilishgan. Demak, kishilar diniy-ziyorat maqsadida borib, sayohatchilar toifasiga qo‘shilganlar. Turoperatorlar turistik mahsulotni shakllantirish (tuzish yoki loyihalash)ni, uni bozoriomon harakatini, shuningdek, realizatsiya qilinishini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. (Izoh: bu yerda va bundan keyin jismoniy shaxs, – deganda, yuridik shaxs ma‘lumotiga ega bolmagan tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan bo‘lish kerakligi anglashiladi.) Mazkur qoidaga ko‘ra, turoperatorlarning dastlabki ikki funksiyasi nisbatan tushunarli: ya‘ni, turistik mahsulotni shakllantirish, deganda: tur muddatlari, maqsadni aniqlash bo‘yicha tartiblashtirilgan va bir-biriga boglangan, narxi va sifati bo‘yicha, ketm aketligiga ko‘ra kelishilgan xizmat ko‘rsatish va ish bajarish, ularni taklif etish bo‘yicha shartnomalar tuzish, tegishli ravishda bronlashtirish va rezervlashtirish tushuniladi. Bozor tomon yo‘naltirish, deganda: shunday ishlar majmuyi tushuniladiki, bunda potensial iste‘molchida shu ishlarni sotib olish uchun moyil – rag‘bat tug‘dirish bo‘yicha ishlar bajariladi yoki soddaroq aytganda tur va xizmatlar reklamasi amalga oshiriladizmatlar reklamasi amalga oshiriladi. Keyingi funksiya batafsil tushuntirib berilishini talab etadi. Ya‘ni, «Realizatsiya» atamasi ikki xil ma‘noga ega: a) sotish; b) bajarish. Ba‘zan turoperator o‘z huzurida maxsus strukturaviy bo‘linma – faqat turistlarga ko‘rsatishnigina emas, balki barcha agentlik ishlarini o‘zaro muvofiqlashtirish bilan ham shug‘ullanuvchi turlarni chakanalab sotish bo‘yicha markaziy turistik agentligini tuzadi. Amaliyotda turizm sohasidagi korxonalar ichida turoperatorlarning soni 5 % dan oshmaydi, turagentliklar esa 95 % ni tashkil etadi. Bundan tashqari, turoperator

turistik mahsulotni iste'molchi (turist) oldida bajarilishi uchun javob beradi va amalda turistik mahsulotni nazorat qilish va operativ kuzatib borishni hech bolmaganda turistik guruhlar uchun doim ) amalga oshiradi.

Faoliyatning klassik (an'anaviy) sxemasi bo'yicha turoperator turistik agent – ko'tarachilarga turistik mahsulotni faqat ulgurji sotishni amalga oshiradi, agent – ko'tarachilar esa bu mahsulotni hududlar va mintaqalar bo'yicha taqsimlaydilar va ularni mahalliy turistik agentliklar orqali sotadilar. Turlarni iste'molchining o'ziga - turistga chakanalab sotishni turistik agentlik (qisqacha turagentlik) amalga oshiradi. Odatda turoperatorlik funksiyasini amalga oshirish uchun korxonani shundayligicha yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazishgina emas, balki bunday faoliyatni amalga oshirish uchun maxsus litsenziya ham olish zarur. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-noyabrda qabul qilingan «Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorida bu masalaga oydinlik kiritilgan. Rossiyada (izoh: hukumat qarori bilan 1995-yildan boshlab xalqaro turistik faoliyatni litsenziyalashtirish tartibi joriy etilgan) litsenziya olish faqat xalqaro turistik faoliyatni amalga oshirishda talab etiladi. Ichki turizm sohasidagi faoliyatda litsenziya va maxsus ro'yxatdan o'tish talab qilinmaydi. O'zbekistonda esa ichki va xalqaro turizm uchun yagona litsenziya zarur. Turoperator turistik mahsulotni iste'molchisi oldida javobgar hisoblanadi. Iste'molchi ko'pgina turli xil korxonalar xizmatini o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatishlar paketini aynan undan sotib oladi. Bu javobgarlik turoperatorning tegishli kafolatlarini (mas'ulum summadagi mablag' depoziti yoki boshqa ta'minot uchun bank kafolati, agar litsenziyalashtirish qonunlari bo'yicha mumkin bolsa, professional javobgarlik nisug'urtlash (Izoh: agar bajarish funksiyasi amalga oshirilmasa, yoki ataylib, turoperator turistlarga tuzatib berib, ancha-uncha pul to'plab, shu zahotiyog' oyib bo'lishi mumkin. Buni turizm bo'yicha fribgar va tovlam achilar mintazam amalga oshirib keladilar. Buning ustigana litsenziyalashtirish instituti, na turli xil kafolatlar turistlarni bunday hodisalardan himoya qila olmaydi) nazarda tutgandir. Turistik agentliklar (turagent) bu iste'molchi (turist)ga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir. Turoperator yoki turagentlik bilan uning moliya sohasiga va hattoki mas'uliyatni mas'ulum darajada qayta taqsimlashga doir ko'zda tutilishi mumkin bo'lgan juda xilma-xil o'zaro ta'minot va hisob-kitob qilishlar bo'yicha agentlashtirish shartnomasi bog'lab tuzatib beriladi. Sotuvchi sifatida agentlashtirish shartnomasi bo'yicha uning funksiyasi agar faqat aynan shu vositachilik funksiyasidan iborat bo'lsa, turagent, turistik mahsulot uchun cheklangan mas'uliyatga ega bo'ladi. Misol uchun a) ayrim xizmat ko'rsatish)ami; b) turoperator tomonidan olingan turistik paketlarni; d) paket bilan bogliqligi shartlanmagan, masalan, yakka turistlar uchun ko'rsatiladigan turli xizmatlar

majmuyini sotuvchi agentliklar mavjud. Agentlashtirish sohasida faoliyatning bir nechta turlari farqlanadi:

a) shaxs nomidan va korxonaning topshirig‘i bo‘yicha turlarni sotish. Mohiyatan bu turli xildagi turoperatorlarning «turistik yo‘llanmalar do‘koni» dir. Turistik yo‘llanmada doimo bunday sotishni amalga oshirgan turoperator va agentning barcha rekvizitlari to‘liq ko‘rsatiladi (Izoh: agentlik foizi tushunchasi bor bo‘lgan m a m lak atlard a, agentlik foizining sum m asi doim o tu ristik xizmatlarning cheki yoki vaucherida ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bunday mamlakatlarda yo‘llanmalar yo‘q, balki vaucher bor bo‘lib, unda kassa apparatidagi m a‘lumotni yozib qo‘yish uchun maxsus hoshiya mavjud ekanligini ta ‘kidlab o‘tamiz. Bunday holda agentlikning o‘zi barcha oqibatlarni va javobgarlikni b o ‘yniga oigan holda turoperatorlik funksiyasini bajaradi);

b) Turlarni o‘z nomidan, lekin turistik mahsulotni muayyan turoperatorga tegishli ekanligini ko‘rsatgan holda sotish;

d) Turistik mahsulotni o‘z nomidan (bu mahsulotni konkret bir turoperatorga tegishli ekanligini eslatmasdan), birgalikda yaratiladigan turistik mahsulotni sotish.

O‘zaro harakat qilishning qabul qilingan jadvalidan kelib chiqib, javobgarlikning aniq belgilangan darajalari, moliyaviy hisob-kitoblar va faoliyatning soliqqa tortilish jadvali yuzaga keladi. Turistik agent turistik mahsulotni sotish jarayonida ishtirok etuvchilarzanjirining muhim halqasi bo‘lib, o‘zining tabiiy xususiyati va iste‘m olchining xarakteridan kelib chiqqan holda, potensial iste‘m olchining o‘zigacha, iloji boricha uning uyiga yoki xizmat joyigacha yetib borgan bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham turistik agentliklar juda ko‘p va umumiy hollarda ularxodimlarining soni bo‘yicha ko‘pchilikni tashkil qilm aydilar, lekin ham isha vitrinalik birinchi qavatda va ko‘pchilik o‘tadigan yerlarda joylashgan bo‘ladilar (Izoh: ba‘zi m a‘lumotlarga ko‘ra, Nyu-Yorkda 324 ming turistik agentliklar mavjud), har bir agentlik qoshida muayyan joylardagi iste‘mol bozorining konkret bo‘g‘iniga xizmat ko‘rsatuvchi ko‘p sonli yollanma ishchilar ishlashadi. Rivojlangan mamlakatlarda turlarning eng ko‘p qismi aynan oilaviy agentliklar tom onidan sotiladi (Izoh: oilaviy mutaxassislik qatoriga tish dok torlari, vrachlar, huquqshunoslar va turistik agentlar kiradi.) Samarqandda Buyuk ipak yo‘li bo‘yicha xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi Samarqandda “Afg‘oniston, Markaziy Osiyo va Eron – Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab umumiy meros, Yevropaga yo‘l” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Bu haqda O‘zA xabar berdi. YuNESKO, Yevropa Ittifoqi hamda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti hamkorligida tashkil etilgan anjumanda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tashqari Eron, Afg‘oniston, Turkiya, Ozarbayjon va Pokistondan kelgan sharqshunos, san‘atshunos va tarixchi olimlar, xalqaro ekspertlar ishtirok etdi. Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi Erkinjon Turdimov, YuNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pikkat, Yevropa Ittifoqining delegatsiyasi rahbari Eduards

Stiprays va boshqalar O‘zbekiston yuritayotgan ichki va tashqi siyosat qo‘shni davlatlar hamda dunyoning turli mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilganini alohida ta’kidladi. Bu aloqalar iqtisodiy soha bilan birga, madaniy-gumanitar, turizm sohalarida izchil rivojlanayotgani qayd etildi. Anjumanda xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar mintaqada moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash, Buyuk ipak yo‘lida joylashgan mamlakatlar xalqlarining madaniy merosi haqidagi umumiy bilimni oshirish, turizmni barqaror rivojlantirishning yangi imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan fikr almashildi. Anjumanda madaniy obyektlar bilan bog‘liq xalqaro loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, jahon muzeylarida saqlanayotgan qo‘lyozmalardan raqamli texnologiyalar asosida nusxa ko‘chirish, mumtoz musiqa namunalarini tadqiq etish, o‘rta asrlarda dinlararo munosabatlar kabi mavzularda ma‘ruzalar tinglandi. Tadbir doirasida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha Samarqand shahridagi “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti hamda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

#### **XULOSA:**

Markaziy Osiyo davlatlari ayniqsa O‘zbekiston hududida turizmga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. O‘zbekiston hududida turizmga oid o‘nlab konferensiyalar o‘tkazilib kelinmoqda. Konferensiyalarda turizmni yanada jadal rivojlantirishga oid qarorlar mamlakatlar orasida o‘zaro bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilgan. Hozirda chet el mutaxassisleri yordamida O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirishga oid bir qancha tadbirlar olib borilmoqda. Buyuk ipak yo‘li instituti qurilishi orqali malakali kadrlarni: turoperatorlar, turagentlar, gidlar kabi mutahassislar yetishtirilmoqda. Turizm keng qamrovli soha hisoblanib 20 dan ortiq kasblar bilan birga faoliyat olib boradi. Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, chet el mamlakatlari bilan yaxshi aloqalarni olib borish orqali turizmni rivojlantirib kelmoqda. Ammo xalqaro maydonda bo‘layotgan muammolar: Covid - 19, Rossiya – Ukraina urushi, hozirda ham davom etayotgan Isroil-Falastin urushlari oqibatida turizmga bo‘lgan talab tushish holatlari kuzatilmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay O‘zbekiston urushayotgan davlatlardan birini tanlamay neytral pozitsiyasini saqlab qoldi va bu orqali turizmga yanada ko‘proq yo‘l ochdi. Sayohatchilar urush bo‘layotgan davlatlardan ancha uzoqda joylashgan O‘zbekiston hududiga sayoxat qilish afzal bilishdi. Urush oqibatida zarar ko‘rayotgan turizm endilikda O‘zbekiston hududida rivojlanmoqda. Turoperatorlar faoliyatida erkinliklar berilishi oqibatida turistlar oqimi yildan yilga ortmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.T.Mirzayev, M.T.Aliyeva. Turizm asoslari O‘quv qo‘llanmasi 2011
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tandiqiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni. 2019 yil 5 yanvar’.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi “o‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risidagi farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 15-apreldagi «2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlatdasturi to‘g‘risida”gi farmoni.
7. “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun. 1999-yil 20-avgust.
8. G. Nazarova, M. Mirzayev. Turizm huquqi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2003.